

2-sinf 4-chorak
X BO'LIM. BIZNING YORDAMCHILAR

1-Mavzu: Aqlli yordamchilar

Darsning maqsadi:

Muazzam Ibrohimovanning "Aqlli sichqoncha" ertagi bilan tanishtirish;
Atrofimizdagi aqlli yordamchilar haqida ma'lumot berish.

Jamoadi ishlash ko'nikmasini rivojlantirish

Tayanch so'zlar: kompyuter, sichqonchaning orzusi, mushuk hammasi.

Didaktik materiallar: turli texnika jihozlarining rasmi.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: Berilgan so'zni teskarisiga o'qing.

YORDAMCHILAR

II. O'tilganlarni takrorlash. (5 daqiqa)

Ta'til vaqtida o'qigan kitoblari haqida suhbatlashiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: "1+so'z" mashqi.

"Iz" so'zining boshiga bitta tovush qo'sib yangi so'z hosil qiling.

Muhokama uchun savollar.

1. Qanday so'zlar tuzdingiz?
2. O'rtog'ingiz tuzgan so'zlarni aytib bering.
3. Kimda jeriklarida uchramagan so'zlar bor?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikdagi rasm asosida suhbat o'tkaziladi.

Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Ularni bitta so'z bilan ayting. Biz ularni yordamchilar deya olamizmi? Nima uchun? Siz yana qanday yordamchi elektr jihozlarini bilasiz? Aqlli yordamchilarga nimalarni kiritgan bo'lardingiz? O'quvchilarning fikri umumlashtiriladi. Kompyuter haqidagi ma'lumot o'qiladi.

Kompyuter – ajoyib qurilma. Uning yordamida hisoblash, rasmlar chizish, turli ma'lumotlar to'plash va saqlash mumkin. Kompyuterga ishlashi uchun dastur deb ataluvchi ko'rsatmalar o'rnatiladi.

Matn bilan ishlash.

- Muallif Muazzam Ibrohimovanning yana qaysi asarlari bilan tanishganmiz?

Muazzam Ibrohimovanning "Aqlli sichqoncha" ertagi o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. Mazmuni yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1. Ertak nima haqida?
2. Nega ertak qahramonlaridan biri ba'zan xafa bo'lib qolar ekan?
3. Sichqoncha bilan qanday voqea yuz berdi?
4. Sichqoncha Baroqvoydan qanday qutilib qoldi?
5. Sizga ertakning qaysi qismi eng qiziq tuyuldi?
6. Ertakda qaysi multfilm qahramonlari tilga olingan?
7. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi. Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

umbaloq oshib – boshini yerga tirab, orqasiga ag'darilib o'ynamoq.

arang – mashaqqat bilan, zo'rg'a.

chatoq – qiyin, mushkul, yaxshi emas.

Rasm asosida voqealar ketma-ketligini hosil qilinadi va ertak mazmuni qayta hikoya qilinadi.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi. Rasmda tasvirlangan kompyuterning asosiy qurilmalar nomlari yoziladi.

"Bu qiziq" rukni ostida berilgan ma'lumotlar o'qiladi.

Darslikdagi topshiriq bajariladi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linib jihozlarning foydali va zararli tomonlarini aytishadi. O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Topishmoq o'qiladi va javobi topiladi.(kompyuter sichqonchasi, kompyuter, telefon)

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Ertak sizga yoqdimi?
- Undan qanday ibrat oldingiz?

Fikrni davom ettiring: *“Men bugun darsda ... bilib oldim.”*

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Kompyuter va telefondan foydalanish qoidalarini ishlab chiqing. Siz o‘zingiz bu qoidalarga amal qilasizmi?

2-Mavzu: Elektr manbalari

Darsning maqsadi:

Dilfuza Shomalikovaning “Chiroqning uyi qayerda?” hikoyasi bilan tanishtirish orqali elektr manbalari haqida ma’lumot berish;

Elektrostansiyalar haqida tushunchalarini kengaytirish va elektr tokidan oqilona foydalanishga o‘rgatish;

Bog‘lanishli nutqini shakllantirish;

Tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilishini oshirish.

Tayanch so‘zlar: elektrostansiyalar, elektr toki, oqilona foydalanish.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *Gapdagi xohlagan bitta so‘zni o‘zgartiring va boshqa gap tuzing.*

Davron chiroqni o‘chirdi.

II. O‘tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

“Davom ettir” mashqi orqali ertak mazmuni so‘zlab beriladi. O‘zlari amal qiladigan kompyuter va telefondan foydalanish qoidalarini o‘qitiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *Darslikda berilgan rasm mazmunini gaplar bilan ifodalang.*

Muhokama uchun savollar.